

## **E'TIQOD VA BILIMMING RATSIONAL VA IRRATSIONAL OMILLAR**

Kalandarova Gavhar Sulaymonovna,

Toshkent davlat Agrar universiteti assistenti,

E-mail:gavharqalandarova86@gmail.com

Tel: (99) 895 61 04 Toshkent davlat Agrar universiteti

M. Aytbaev

f. f. nom. dots. taqrizi asosida

## **RATIONAL AND IRRATIONAL BELIEFS AND KNOWLEDGE FACTORS**

### **Abstract**

In this article, the rational and irrational factors of belief and knowledge are based. In particular, irrationalism limits the possibilities of the mind in the process of cognition to a certain extent from the point of view of direction. In this sense, a number of processes such as the human will, the phenomenon of intuition and the illumination of supernatural (mystical) intelligence can be recognized as irrationalism. In fact, knowledge formation is a whole, complex system in the process of cognition and has a specific structure. Therefore, in this chapter, we will try to philosophically analyze the specific criteria and tendencies of belief and knowledge formation through philosophical views and theories.

**Keywords:** knowledge, rational and irrational, irrationalism, value, intuition (mystic), supernatural, the ratio of belief and knowledge, esoteric knowledge, imagination, objectivity, abstract logical knowledge.

## **E'TIQOD VA BILIMMING RATSIONAL VA IRRATSIONAL OMILLAR**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada, e'tiqod va bilimning ratsional va irratsional omillari asoslangan. Xususan, irratsionalizm yo'nalish nuqtai nazardan aqlning bilish jarayonidagi imkoniyatlarini muayyan darajada chegaralab qo'yadi. Shu ma'noda inson irodasini, intuitsiya hodisasi va g'ayritabiyy (mistik) aqlning yorishishi kabi bir qator jarayonlarni irratsionalizm sifatida e'tirof etish mumkin. Darhaqiqat, bilim shakllanishi bilish jarayonida yaxlit, murakkab tizimdir va muayyan strukturaga ega. Shu bois ushbu bobda e'tiqod va bilim shakllanishining o'ziga xos mezon va tendensiyalari falsafiy qarashlar va nazariyalar orqali falsafiy tahlil etishga harakat qilamiz..

**Kalit so'zlar:** bilim, ratsional va irratsional, irratsionalizm, qadriyat, intuitsiya (mistik), g'ayritabiyy, e'tiqod va bilimning mutanosibligi , ezoterik bilimlar, tasavvur, ob'ektivligi, abstrakt mantiqiy bilish.

## РАЦИОНАЛЬНЫЕ И ИРРАЦИОНАЛЬНЫЕ УБЕЖДЕНИЯ И ЗНАНИЯ ФАКТОРЫ

**Абстрактный.** В этой статье обоснованы рациональные и иррациональные факторы веры и знания. В частности, иррационализм в известной степени ограничивает возможности разума в процессе познания с точки зрения направленности. В этом смысле ряд процессов, таких как человеческая воля, явление интуиции и озарение сверхъестественного (мистического) разума, могут быть признаны иррационализмом. По сути, формирование знаний представляет собой целостную, сложную систему в процессе познания и имеет специфическую структуру. Поэтому в этой главе мы попытаемся философски проанализировать специфические критерии и тенденции формирования убеждений и знаний через философские взгляды и теории.

**Ключевые слова:** знание, рациональное и иррациональное, иррационализм, ценность, интуиция (мистика), сверхъестественное, соразмерность веры и знания, эзотерическое знание, воображение, объективность, абстрактно-логическое знание.

Tahlillarga ko'ra, bilimning ratsional jihatdan farqli ravishda irratsional jihatlari faylasuflarni yangi davrdan boshlab qiziqtirib kelgan. Xususan, irratsionalizm yo'naliish nuqtai nazardan aqlning bilish jarayonidagi imkoniyatlarini muayyan darajada chegaralab qo'yadi. Shu ma'noda inson irodasini, intuitsiya hodisasi va g'ayritabiyy (mistik) aqlning yorishishi kabi bir qator jarayonlarni irratsionalizm sifatida e'tirof etish mumkin.

Darhaqiqat, bilim shakllanishi bilish jarayonida yaxlit, murakkab tizimdir va muayyan strukturaga ega. Shu bois ushbu bobda e'tiqod va bilim shakllanishining o'ziga xos mezon va tendensiyalari falsafiy qarashlar va nazariyalar orqali falsafiy tahlil etishga harakat qilamiz. Sh.Sirojiddinov yozishicha: «Avgustinning irodaga qarashi greklarga yot. Ularda iroda bu - kuch, aql-tafakkur orqali Ezgulikni tushunish uchun vositadir. Greklar aqliy tafakkurga suyanganlar. Tafakkur irodadan ustun qo'yilgan. Avgustin esa iroda tafakkurdan ustun dedi. Avgustin hissiyotlar inson hayotida aqliy tafakkur tarafdorlari o'ylagandan ham ko'ra ko'proq katta ahamiyatga ega deb hisobladi. Shu munosabat bilan u stoyiklarning xolis yondashuvini shubha ostiga oldi: inson mustaqil ravishda hissiyotlarini idora eta olmaydi. Bunda e'tiqod boshqaruvchi kuchdir. Xudo haqidagi Haqiqatni aql emas, e'tiqod bila oladi. E'tiqod esa aqldan ko'ra irodaga taalluqlidir. Sezgi va qalbning o'mini ta'kidlagan holda, Avgustin e'tiqod va bilimning uзвиyligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga u aql-tafakkurni kansitmaydi, aksincha uni munosib baholaydi. Uningcha, e'tiqod va tafakkur bir birini to'ldiradi: "E'tiqod qilish uchun tafakkur qil! Tafakkuring teran bo'lishini istasang, e'tiqod qil!". Avgustincha bilish nazariyasining xarakterli tomonlaridan biri xristian mistitsizmidir. Uning asosiy o'rganish obyekti Xudo va inson mohiyati sanaladi. Bilish nazariyasidagi irratsionallik, ya'ni iroda omillarining ratsional mantiqiy omillardan ustun turishi Avgustin ta'limotida e'tiqodning aqldan ustunligi orqali himoya qilinadi. Uningcha, inson uchun buyuk martaba aqliy salohiyati

emas, balki diniy aqidalarни qalbdan anglab yetishdir. Xudoga ishonish — bilishning boshlang‘ich nuqtasi»[ Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008 – B.17.].

Darhaqiqat, F.Rouzentalning ta’kidlashicha: «Islomgacha arablar madaniyatida shakllangan bilim konsepsiyasining mazmuni dinga nisbatan shubhalardan holis edi va yangi diniy (ya’ni islomiy) harakatda muhim ahamiyat kasb etishga tayyor bo’lgan»[Раузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания средневековом исламе. – М.: Наука, 1978. – 40 с.]. Shu bilan birga islomda bilim konsepsiyasining shakllanishiga tashqi (masalan, xristianlik ta’limotidagi gnostik qarashlar) omillar ta’sir qilganini rad etmasada, buni isbotlovchi dalillar hali topilmagan va u hozirda faqat ilmiy faraz ekanligini ta’kidlaydi. Islom madaniyatida musulmon ilohiyotchilari (hadisshunoslar, mutakallimlar) Al-Buxoriyning “Bilim kitobi” asari o’rta asrlarda “bilim”larni muhokama qilish bo’yicha ulkan manba bo’lib xizmat qilgan. Keyinchalik hadisshunoslikda, kalomda “bilim” muommosini muhokama qilish yana bir muhim maqsadga-bilimning haqiqiy dinga doir iymon bilan bog’liqligini ko’rsatib berishga xizmat qiladi. Demak, hadisshunoslikda bilim ham nazariya, ham amaliyotning kaliti hisoblangan. Yuz yildan keyin molikiya huquqiy mazhabiga tegishli asarlarda ham bilim muommosini muhokama etish zaruriy shart bo’lgan. Imom G’azzoliyning mashhur “Ixya ulum ad-din” asarining muqaddimasi ham “Bilim kitobi” deb nomlangan. Uning asarlarida bilimning mavhum tushunchasi bilimning individual cheklangan tadqiqot predmeti bilan chambarchas bog’liqdir. F.Rouzental fikricha: «G’azzoliy o’zining “Bilim kitobi”ni aqlga bag’ishlangan mulohazalar bilan yakunlaydi, chunki chuqur falsafiy mulohazalar natijasi “aql” konsepsiysi, ratsional bilish quroli sifatida epistemalogiyada birinchi, yetakchi o’rinni egallay boshlaydi»[ Раузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания средневековом исламе. – М.: Наука, 1978. – 105 с]. F.Rouzentalning yuqorida qayd etilgan asarida bu ta’riflarning tasnifi beriladi. Shunday qilib, islom ta’limotiga binoan bilim haqiqiy e’tiqodning zaruriy shartidir. Bilim o’rta asr musulmon sivilizatsiyasining ustuvor qadriyatidir. S.M.Arifxanova., G.X. Rasuleva., M.N. Abdullayevalar yozishicha: «Musulmonlar bilimga oliy qadriyat sifatida munosabat bildirganlar, chunki bilim, musulmon ma’naviy hayotining barcha tomonlarida, ularning siyosiy va diniy faoliyatida oddiy musulmonning kundalik hayotida ham o’z ifodasini topdi. Muxammadning “bilim” konsepsiysi islomning ma’naviy hayotini uning asosiy o’zgarmas o’zaniga yo’naltirdi»[ Арифханова С.М., Расулеева Г.Х., Абдуллаева М.Н. Мусулмон фалсафасида рационализм ва билим муоммолари. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ институти, 2011. – Б.13-14.].

Sh.Sirojiddinov fikricha: «Gnostiklar Isoning asosiy vazifasi insonga narigi dunyoda najot topish yo’llarini o’rgatish bo’lgani haqidagi xristianlarning aqidalarini yanada rivojlantirib, shunday xos bilim (gnozis) borki, Iso uni faqat ayrim odamlarga o’rgatgan deydilar. Bu odamlar olimlar bo’lib, avom bunday ilmlarni tushunishdan ojiz deb hisoblaganlar. Ularning darajalariga yetish, ularning ilmlarini o’rganish gnozis (ma’rifat) orqali amalga oshiriladi. Bu esa inson najot topishining eng samarali usulidir. Ularning ta’limoticha, ana shu, xos ilmni

egallagan pnevmatiklargina (pnevma - “ruh” so'zidan, ya’ni ruh ilmini egallaganlar) samoga, Tangri va Iso huzuriga ko’tarila oladilar. G‘aflatda yurib, ma’rifatini oshirmaganlarga u yerda joy yo‘q. Ular abadiy azob-uqubatga mahkum bo‘lib qoladilar»[Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008 – B.14.].

Darhaqiqat, qadimgi xitoylar o’zlarining falsafiy ta’limotlar asosida yuzaga chiqqan diniy e’tiqodiga ega bo’lgunicha, animatizm ruhiyatiga moyil «tirik tabiat» unsurlari - tog'u tosh, dengizu daryo, kuyosh va shamol singari sirli ob’ektlar hamda podsholar ajdodining dastlabki Oliy vakili «Shandi»ga (D) sig'inishgan. Lekin Chjou davriga kelib, mavjud ilohiy pantionda yangi Illoh ilgari surildi - butun samoviy ilohiyotning oliysi bo’lgan "Osmon" va shuningdek, yerdagi uning "o'g'li" va noibi, ya'ni Chjou podshosi - «van» (34:361). Xitoylarda bamisolı «ota va o'g'il rishtasi» zamiridagi e’tiqodning yuzaga kelishida, ayrim milliy xususiyatga taalluqli sabablar bor edi. «Bu yerda azaldan ijtimoiy etika va adminstrativ tajriba roli, mistik abstraktsiya yoki hindlarga o’xshab individual tarzda Illohdan panoh izlashga qaraganda juda ustun bo’lgan. Hushyor va ratsional fikrlovchi xitoylik, - deb yozadi taniqli rus dinshunosi L.S.Vasiliyev, - hayot va o’lim yoxud boqiy dunyo sir-asrorlari haqida ko'p o'yga tolmay, u doim yetuk insoniy fazilat sohiblariga taqlid qilishni o'zining muqaddas burchi deb bilgan. Xitoya gunohlar azobidan qutilish va u dunyoda huzur-halovatda yashashni emas, balki jamiyatda qabul qilingan normalarga munosib yashashni ilgari surishgan. Shuningdek, qadimdan dunyoni diniy anglashdagi mifologik muqaddaslik o’rnida, majozan uning «aks jarayon»i joriy bo’lgan. Zero, xitoyliklar xayolida ilohiyot ko’kdan yerga tushib, asrlar osha maqomi yuksalib kelgan alloma va adolatli podsholar timsolida namoyon bo’lgan (10:273-2746.). Shu sababdan, o’tmishdagi hukmonron sulolalar asoschilarining shaxsiy hayoti va davlatchilik faoliyati diniy ahamiyatga ega ekanligi bois konfutsiylik, doasizm va buddizm mavzuiga o'tishdan oldin, qisqacha bo'lsa-da, Xitoyning qadimgi tarixi sahifalariga murojaat qilamiz. "Koinotning asosi g'amxo'rlik ekanligiga bo'lgan e'tiqod, diniy g'oyaning Oliy kuch oldidagi qo'rquvi va uning e'zoziga xizmat qiluvchi xitoy dinini yahudiylilik, nasroniylik va islomdan ajratib turadi. Xuddi shuning uchun Xitoya diniy e’tiqodning etnik falsafa bilan doim rishtasi mustahkam bo'lgan.

Qadimgi Xitoyning Daosizm to‘g‘risidagi ta’limotini alohida e’tirof etish zarur. Ushbu diniy ta’limot mistik va shamanistik madaniyatlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Ushbu diniy ta’limotning fundamental xususiyati: bilimlarni diniy falsafiy ta’limot ya’ni tabiat (dao) darajasiga olib chiqishdaligidir. Darhaqiqat, Daosizm ta’limotiga ko‘ra, Dao - koinot va tabiat to‘g‘risidagi qonun va borliqning abadiy ibtidosidir. O‘z navbatida, Dao ilohiy birinchi ibrido va ilohiy yo‘l hisoblanib, xususan, tabiatdagi barcha narsa va hodisalar uning yo‘lidan o‘z mohiyati tomon yetib borishi tasavvur qilinadi. Shu bilan birga, uch xudo – Shan di, Lao-szi hamda olamning yaratuvchisi Pan gu g‘oyalari orqali bu ta’limotning kosmogonizmi ochib berilgan. Dao - makrokosm va inson – mikrokosm sifatida tushunilgan. Darhaqiqat, Dao ta’limotiga ko‘ra, insonlar Daoda mavjud «de» kuchiga asoslanib o‘zlarini namoyon qiladi. De insonlarni faol mavjudot bo‘lishga undamaydi, balki

tabiatda o'rnatilgan qonuniyatlar va tartibsizliklarni o'zgartirmaslikka da'vat qiladi. Shu ma'noda J.Tulenovning: «Daosizmda dunyoda qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi amal qiladi, tabiat hodisalari bir-biriga zid holatda aylanib rivojlanadi»[ Туленов Ж. Фалсафа тарихи. – Тошкент: 2001. – Б. 11.], degan fikriga qo'shilish mumkin. Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib, ushbu diniy ta'limot insonlarni tabiat bilan uyg'un yashashga chorlashini va ularga qarshilik qilmaslikka da'vat qiladi. Shu boisdanki, daosizm dini "haqiqati", Konfutsiy tarafdarlari nazarda tutgan haqiqat bo'limgaganligi uchun! Ammo Konfutsiy ta'limoti tajribasining ham "dahriylikka qarshi kurash" bobida boshqa davlat maqomidagi diniy e'tiqodlardan mutlaqo farqi yo'q edi: qatl, quvg'in, manbalarni man etish yoki yoqish. Navbatdagi muxolifatda "haqiqiy xitoy konfutsiyligi" daosizmini yolg'on, budtsizmni esa "varvar" - jaholat ta'limoti, deya ta'qib qildi"(25:384b).

Vaholanki, Lao ta'limotining jamiyatdagi ommalashuvi to'g'risida nainki xorijiy, balki mahalliy xitoy tadqiqotchilarining xulosalari kofutsiylikka nisbatan ancha ijobjiy edi. Mashhur xitoy olimi Syuy Dishan bayonida qayd qilinishicha: "Agar masalaga xitoylarning kundalik turmushi va diniy e'tiqodi jihatidan qaralsa, daosizmning "solishtirma og'irligi" konfutsiylikning"solishtirma og'irligi"dan sezilarli darajada kattaroq. Mabodo biz biror. bir xitoyning hayoti va idealini tahlil qila olganimizda edi, u holda biz tahlil natijasida, avvalo, daosizm idealarini ko'rgan bo'lardik". Yoki "Konfutsiylik, - deb xulosalaydi yapon tadqiqotchisi Kimura Eyiti, asosan Xitoyning nufuzli doiralari e'tiborida bo'lib, ayni vaqtida jamiyatning asosiy qismi hisoblangan dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar ko'proq daosizm ta'sir doirasida edi"(43:28-29b.). Dao falsafasi va uning amaliyoti konkret natijalariga kelsak, so'nggi nufuzli nashrlarning birida shunday xulosaga kelingan: "Bordiyu, "Jangari podsholiklar" davri Dao falsafasining "oltin asri" hisoblansa, Janubiy hamda Shimoliy sulolalar hukmronligi davri, ya'ni asrimizning 304-589 yillari daosizm diniy e'tiqodining "oltin asri" bo'ldi". O'tgan davr ichida daosizm tugal shakllangan hamda o'z-marosimlari, yozuv manbalari va juda ko'p sonli taqvodorlari bo'lgan dinga aylandi"(14:466.) Dao - makrokosm va inson – mikrokosm sifatida tushunilgan.

Darhaqiqat, Dao ta'limotiga ko'ra, insonlar Daoda mavjud «de» kuchiga asoslanib o'zlarini namoyon qiladi. De insonlarni faol mavjudot bo'lishga undamaydi, balki tabiatda o'rnatilgan qonuniyatlar va tartibsizliklarni o'zgartirmaslikka da'vat qiladi. Shu ma'noda J.Tulenovning: «Daosizmda dunyoda qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi amal qiladi, tabiat hodisalari bir-biriga zid holatda aylanib rivojlanadi» degan fikriga qo'shilish mumkin. Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib, ushbu diniy ta'limot insonlarni tabiat bilan uyg'un yashashga chorlashini va ularga qarshilik qilmaslikka da'vat qiladi. Shunga asoslangan holatda ta'kidlash lozimki, zardushtiylik dinining muqaddas manbasi «Avesto» kitobida ham ana shunday tizimlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, ushbu kitobda ilgari surilgan g'oyalar: tabiat, olam, inson haqidagi ilk sistemalashtirilgan ko'rinishidir. Dunyoning yirik diniy e'tiqodlari tajribasidan ma'lumki, har bir din o'z sarhadidan tashqari chiqqanidan keyin undagi mavjud madaniy-ma'rifiy unsurlar

yangi mahalliy sharoitda asosan ikki xil sifatda faoliyat ko'rsatgan: "o'zlashuvchi" va "o'zlashtiruvchi". Masalan, islomning Hind yarim oroliga kirib kelganidan keyingi faoliyatiga e'tibor bersak, ayrim ilmiy nashrlardan uning yerlik xalqlarning o'ziga xos maishiy, ijtimoiy an'analari ta'sirida yangi jihatlarni "o'zlashtirgan"ligining guvohi bo'lamiz: "Hindistonlik musulmonlarning ma'naviyati, urf-odatlari va hatto ular e'tiqod qiladigan islam ham o'ziga xos chizgilari bilan Misr, Turkiya, Eron musulmonlarinikidan ajralib turadi"[ Низомиддинов Н.Ф. Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом. – Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи, 2006. – Б. 85.].

Xususan avval boshdan musulmon va boshqa din e'tiqod vakillari bir-biri bilan diniy masalalarda birlashib kelganligini aytish mumkin. Bunda, qolaversa, tub yerlik aholi diniy manbalari falsafasi ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgan: «Kimki mavjud borliqni Oliy tangri bilan birlikda ko'rsa va barcha jonzotlarni uning zarralari deb bilsa, u hech kimdan hech qachon nafratlanmaydi». Xususan, brahmanlik dinida borliq to'g'risidagi qarashlarni mukammal tarzda ifodalovchi ikki so'z mavjud bo'lib, birinchi so'z – sat ya'ni fenominal olam (tartibli kosmos) sifatida e'tirof qilgan. Kosmogonik miflarda Olamdan qoladigan narsa – bu kosmik suvlar va ularda olam ustida uxlovchi Vishnu tangrisi mavjud edi. Darhaqiqat, u o'zida potensial tarzdag'i yangi dunyoni va xudolarning yangilanishini o'zida namoyon qilishini ustuvor ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ushbu tabiiy-ilmiy manzarada xaos va kosmos o'rtasida kurash yuzaga kelganligini e'tirof etish lozim.

Biz faylasuf F.Kuiperning: «Vedalar diniy ta'limotiga ko'ra, dastlab yer yuzi paydo bo'lganida uning hamma joyi suvdan tashkil topgan edi. Kunlar o'tib kichik yer bo'lagi ajralib chiqdi va suv yuzasiga ko'tarildi. Keyin, u kengaydi, o'sdi, tog'ga aylandi, yerning boshlanishi bo'ldi va suv ustida qalqib turishda davom etdi»[ Kuiper F.B. Cosmogony and Conception. 1995. – P. 109-110.73] degan fikriga qo'shilishimiz mumkin. Ushbu dinning kosmologiyasida yerda hayotning va insonlarning paydo bo'lishini tabiiy unsurlarga bog'lab tushuntirgan.

Ayniqsa, keyinchalik paydo bo'lgan jahon dinlarida ham dastlab yerning suvdan tashkil topganligi e'tirof etiladi. Shunday qilib, koinot paydo bo'lishining dastlabki paytida tog' sifatida tasavvur qilingan olam hali qismlarga bo'linmagan butunlikni o'zida jamlagan edi. Xususan, dastlab osmon, yer, kun, tun, yorug'lik, zulmat mavjud emasligi asoslab beriladi. Shu jumladan, kosmos dualizmining nisbatan insonga tanish tarzda namoyon bo'lishini o'zida aks ettiruvchi qarama-qarshilik ham hali mavjud bo'limgan edi. Shu jihatdan olib qarasak, ularda asosiy xudo bo'lgan Indraning afsonaviy vazifasi yaxlit holatda xoasdani individual shakllarning dualistik dunyoni yaratishi bayon qilinadi. Jumladan, Indra – to'liq hamma narsani yaratmaydi, aksincha, u demiurg sifatida o'zini namoyon qiladi. O'z navbatida, u tashkillashtirilmagan materiya olamida yangi borliqni boshlaydi. Mazkur jarayon natijasida potensial olam real olamga aylangan. Natijada Indrani bir vaqtning o'zida u yerni o'z muvozanatida saqlab turuvchi kosmos markazi sifatida e'tirof qilish mumkin. Bu kabi diniy va tabiiy qarashlar keyingi davrlarga kelib hind milliy dinlarida diniy kosmologiya haqidagi

yangicha qarashlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Xususan, brahmanlik dinida borliq to‘g‘risidagi qarashlarni mukammal tarzda ifodalovchi ikki so‘z mavjud bo‘lib, birinchi so‘z – sat ya’ni fenominal olam (tartibli kosmos)ga nisbatan ishlatilgan. Unga asat ya’ni materiya qarshi qo‘yilgan. Kosmogenik miflarda Olamdan qoladigan narsa – bu kosmik suvlar va ularda olam ustida uxlovchi Vishnu tangrisi mavjud edi. Darhaqiqat, u o‘zida potensial tarzdagi yangi dunyoni va xudolarning yangilanishini o‘zida namoyon qilishini ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yaponiyada paydo bo‘lgan Sintoizm nomli milliy dinda ham ilmiy va noilmiy bilimlarning yuzaga kelishida bir qator yangi ta‘limotlar ilgari surgan. Rus olimi L.Vasiliyevning fikricha: «Sinto ta‘limotiga ko‘ra mikado (imperator) – osmon ruhlari avlod, har bir yapon esa – ikkinchi darajali ruhlar – kabi avlodи hisoblanadi»[ Васильев Л.С. История религий Востока. – М.: 1988. – С. 362.].

Xususan, buddizm paydo bo‘lishidan oldingi ilk sintoizmda yaponlar azaldan sig'inib kelayotgan g‘ayritabiyy dunyolar to‘g‘risidagi tabiiy-ilmiy bilimlar ilgari surilgan. Darhaqiqat, yaponlar ham boshqa xalqlar kabi o‘zini qurshagan tabiat hodisalarini ruhlantirganlar, bu dunyo bilan ruhlar va xudolar dunyosi o‘rtasidagi vositachilar – sehrgarlar, afsungarlar va shamanlarga izzat-ikrom ko‘rsatganligini e’tirof qilish zarur. Rus olimi N.Konrad ta’kidlashicha: «Sintoizmning o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda tangrining «bosh hokimiyyati» haqida tasavvur mavjud emas. Ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inish sintoizmda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi»[ Конрад Н.И. Избранные труды. – М.: Литература и театр, 1978. – С. 150.75]. Shunga qaramay, ular o’sha davrda tabiat hodisalarini kelib chiqishini yetarli darajada anglab yetmaganligini taxmin qilish mumkin. Tadqiqotlar tahlili nuqtai nazaridan aytish lozimki, ibridoiy va milliy dinlar bilan bir qatorda jahon dinlarida ham tabiiy-ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, buddaviylik dinida narsalar tabiatini haqidagi ta‘limot va bilish yo’llari haqidagi ta‘limot farqlanadi. Shu ma’noda aytadigan bo‘lsak, narsalarning tabiatini negizida dharmalar (zarrachalar, unsurlar) yotishini aytish lozim. Buddaviylik dinida olam avvaldan o‘zgarishda va qaytadan tug‘ilishi, hattoki to’xtovsiz oqib turgan daryo bilan qiyosiy tahlil qilish kabi e’tiqodiy bilimlar targ‘ib qilinadi. Jumladan, dastlab buddaviylik dinida borliq ikki ko‘rinishga bo‘lib o‘rganilgan. Undan tashqari, ushbu dinda moddiy va ruhiy dunyolar yagona deb, bayon qilinadi. Buddizm dinining lamaizm yo‘nalishidagi tantirizm oqimiga ko‘ra, inson mikrokoinot voqeligi bo‘lib, koinotdagi elementlardan yuzaga kelgan. Shunga binoan, hattoki uning tanasi makrodunyo bo‘lgan koinotga o‘xshash qilib tuzilgan.

Bizning fikrimizcha, ushbu ta‘limot zamirida inson va koinot bir-biri bilan bog‘langan voqiylik ekanligi haqidagi qarashlari Xitoydagи daosizm va Hindistondagi veda diniy ta‘limotlari ta’sirida shakllanganligi bilan xarakterlidir. Lekin hind tarixida ushbu vokelikning aksi yuz bergen holatlar ham kuzatilgan, masalan, Budda ta‘limoti taqdirida. Avvaliga Mauriya sulolasining bu gok imperatori Ashoka II hukmronlik qilgan yillar, ya’ni eramizdan avvalgi III asr ayni buddizmning keng tarqalish davri bo‘ldi. "Saltanat sarhadlarining nihoyat darajada kengayishi bilan janglarni birida Angokaning Budda dinini qabul qilishi va o‘z vakillarini

Yaqin Sharq, Makedoniya hamda Janubi-Sharqiy Osiyo" mamlakatlariga yuborgan"ligi buddizmning ommalashuviga yangidan yangi hududlarni ochib berdi". Xususan, ortodoksal hinduparastlar nazaridagi "yangi - yot e'tiqod" o'zining baynalmilal ruhiyati va turli sharoitlarga moslashuvchanligi bois qator xorijiy yurtlarda o'zlashishga muvaffaq bo'ldi. Bunday "moslashuv va o'zlashuv"ni urg'ulashdan nazarda tutilgan asosiy narsa shuki, "Hindistonda tabaqlanish tamal toshini o'z joyidan qo'zg'atolmagan Buddha e'tiqodi", o'zining Osiyo qit`asi mamlakatlaridagi jug'rofiy kengayishi davrida ayrim shakliy va falsafiy o'zgarishlarga yuz tutganligini xulosa qilish mumkin.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008 – B.17.
2. Раузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания средневековом исламе. – М.: Наука, 1978. – 40 с. 123
3. Арифханова. С.М., Расулева Г.Х., Абдуллаева М.Н. Мусулмон фалсафасида рационализм ва билим муоммолари. – Тошкент: Фалсафа ва хуқуқ институти, 2011. – Б.13-14.
4. Низомиддинов Н.Г. Шаркий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом. – Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи, 2006. – Б. 85.
5. Kuiper F.B. Cosmogony and Conception. 1995. – Р. 109-110.73
6. Васильев Л.С. История религий Востока. – М.: 1988. – С. 362.
7. Конрад Н.И. Избранные труды. – М.: Литература и театр, 1978. – С. 150.75